

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI SOXASIDAGI TAYYORGARLIK DARAJASINI O'RGANISH, HAYOT FAOLIYATI XAFSIZLIGI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li

Namangan davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi

Axmadjonov Muxammadqodir Akmaljon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Talabalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asosini ishlab chiqish uchun hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish va uning tashuvchisi bo'lgan ushbu ob'ektlarning kerakli sifat va xususiyatlariga erishish uchun ta'sir o'tkazishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil etilgan. Kuzatuv jarayonida talabalarning xavfsizlik madaniyatining bir qismi, shaxsning ajralmas sifati, shu jumladan motivatsion ehtiyoj, kognitiv, ruhiy va operatsion faoliyat komponentlari ekanligi hamda xavfsizlik madaniyatining tarkibiy qismlari bir-biri bilan bog'liqligi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Xavfsizlik, motivatsion ehtiyoj, kognitiv, atrof – muhit, Hayotiy faoliyat xavfsizligi*

KIRISH

Bugungi XXI-asrda ishlab chiqarish jarayonlarining yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishda salbiy holatlarning vujudga kelayotganligi hamda ularning murakkablashuvi natijasida aholi salomatligi, atrof – muhit tozaligi va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga tahdid solayotgan bir paytda xavfsiz hayotni ta'minlash dolzarb masalaga aylangani barchamizga ma'lum.

Yer yuzining turli mintaqalarida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlar o'choqlarining paydo bo'lishi, tabiiy, texnogen yoki aralash turdagi favqulodda vaziyatlarning kuchayishi, atrof – muhit holati va ekologik vaziyatning keskinlashuvi, iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayonlarining jadallashuvi, biologik xilma – xillikning yo'qolib borishi, koronavirus infeksiyasi "COVID-19" pandemiyasi holati yuzaga kelganligi insonlarning bexatar yashash darajasini ta'minlashni eng dolzarb muammomalar qatoriga kiritishni taqozo etadi.

Dunyoda texnogen favqulodda vaziyatlar, antropogen xavfli hodisalar, ishlab chiqarishdagi jarohatlar darajasining yuqorilab borayotganligini, inson hayoti va sog'ligiga atrof – muhitning salbiy ta'siri natijasida jiddiy oqibatlarga olib kelayotgan holatlar tez – tez uchramoqda.

Ayni payda mamlakatimizda aholi xavfsizligini ta'minlash, tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Birgina respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida – "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" mutaxassisligi bo'yicha bakalavr darajasiga ega oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashni

masalasini oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-sonli qarosrining 4-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofazasi yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va 2020/2021 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga joriy etilishini ta'minlash masalalari yuklatildi.

Demak-ki, oliy o'quv yurtlarida "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanining maqsadi talabalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish ekan bu vazifalarni olib borilishini bugungi zamon talablari doirasida ko'rib chiqishimiz kerak.

Albatta bu joyda talabalarda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning quyidagi maqsad va vazifalarini alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- ta'lim muassasalarida baxtsiz hodisalar sonini kamaytirish;
- xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan qiziqishni muntazam ta'minlash;
- xavfsizlikka ongli ravishda munosabat bildirish;
- yangi xavfsizlik vositalarini ommalashtirish;
- o'quv jarayoniga zamonaviy mehnat muhiti va xavfsizlik vositalarini joriy etish;
- har bir ish joyida sog'lom va xavfsiz mehnat va o'quv sharoitlarini yaratish.

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fani barcha yo'nalishlarda – ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy, jinoiy va boshqalarda xavfsizlikni ta'minlash uchun jamiyatning ehtiyojlarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ushbu fan o'zida Respublikamizdagi ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamrab oladi. Hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiena me'yor va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf – xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof – muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini o'rgatish, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, ularga nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bu fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuvini hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Mamlakatimizda bugungi kunda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni quyidagicha sanash va izohlash mumkin.

Birinchidan, hayot faoliyati xavfsizligini o'qitish mamlakatimizda fan sifatida tizimli ravishda o'qitilib kelinmasligi, ya'ni maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim tizimlarida alohida fan sifatida o'tilmasligi. Bugungi kunda ta'limda ushbu fan ayrim fanlarga integrallashtirilgan holda o'qitilib kelinmoqda, shuningdek, ushbu fanning tayanch darsliklardan foydalanmasligi hamda mutaxassis pedagoglar tomonidan ta'lim berib borilmasligini integralashtirilgan fanning to'liq yechilmagan muammosi sifatida qarash kerak;

Ikkinchidan, amaldagi o'quv rejalarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani turli soatlardan iborat, qolaversa ayrim oliy ta'lim muassasalari o'zlari uchun alohida fan dasturlarini ishlab chiqqan;

Uchinchidan, "Hayot faoliyati xavfsizligi" bakalavr mutaxassisliklarga o'tiladigan fanlarning "Fan dasturlari"ni o'zaro muvofiqlashtirish zaruriyati mavjud. Chunki mutaxassislik yo'nalishlariga o'tiladigan "Yo'nalishga kirish", "Mehnat muhofazasi", "Avariya – qutqaruv ishlari", "Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi" fanlarining mavzulari takrorlanib kelishi holati. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, "Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi" fanidagi "Favqulodda vaziyatlar tasnifi" mavzusi "Hayot faoliyati xavfsizligi" va "Avariya – qutqaruv ishlari" fanlarida qayta – qayta takrorlanadi [11];

To'rtinchidan, bir fan doirasida hatto mavzularning takrorlanishi holati mavjudligi. Bugungi kunda favqulodda vaziyatlar (tabiiy, texnogen, ekologik tusdagi) tahlikasi kuchayib borayotganligini hisobga olgan holda fan dasturlarini inson faoliyatida vujudga keluvchi barcha xavflar, xavflar maydonidagi xavfsizligini ta'minlash masalalariga qaratilgan mavzular asosida ishlab chiqishda ta'limning izchilligi tamoyillaridan og'ish holatlari mavjud. Masalan: "Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi" fan dasturining 1-moduli "Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlar muhofazasi" deb nomlangan bo'lib, modul tarkibidagi 3-ma'ruza mavzusi "Favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi. Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tartibi" deb nomlangan. Dasturining 3-moduli "Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari" deb nomlangan bo'lib, moduldagi 1-mavzu "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktyabdagi "Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-son Qarorining mohiyati deb nomlanadi [12]. Har ikki ma'ruza mashg'uloti shu o'rinda aynan takrorlanadi. Bunday takrorlanishlar bilimlarni yanada boyituvchi materiallar asosida mustahkamlash, takomillashtirishga to'sqinlik qiladi.

Beshinchidan, modullar va mavzular tanlanganda muayyan izchillik, ketma – ketlik, oddiydan – murakkabga, quyidan – yuqoriga, osondan – qiyinga sari rivojlanib borishida noaniqliklar mavjud. Masalan: "Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi" fan dasturining 2-moduli "FVDT organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish bo'yicha

faoliyati” deb nomlanadi va bunda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT), uning kuch va vositalari, davlat tizimining faoliyat rejimlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) ning FVDTda tutgan o‘rni bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarini qamrab oladi. Undan keyingi “Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari” 3-modulda favqulodda vaziyatlarga – geologik, gidrometeriologik, epidemiya, epizootiya kabi favqulodda vaziyatlar yoritiladigan ma’ruza mashg‘ulotlariga yana qaytiladi. Ya’ni avval favqulodda vaziyatda ishlaydigan tizim yoritilmoqda [12], so’ngra favqulodda vaziyat o‘zi nima ekanligi xususida so‘z bormoqda.

Bu o‘z navbatida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda talabalarning zo‘riqishiga olib keladi, o‘zlashtirish qiyinlashadi. Bilimlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va bu qiyinchiliklarning doimiy ravishda kuzatilishi talabalarda fanga nisbatan qiziqishni susaytiradi.

Oltinchidan, hayot faoliyati xavfsizligining boshqa fanlar bilan jumladan ekologiya, gigiena, yurisprudensiya, tibbiyot, jismoniy tarbiya, harbiy soha kabilar bilan yaqin integratsiyalashuvida ba’zi bir noaniqliklar va kamchiliklar bor;

Yettinchidan, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib berish – bilimlarni amaliyotga bevosita qo‘llay olinishini ta’minlashdagi ya’ni amaliy tajribalarni o‘tkazishdagi shart sharoitning ta’minlanganlik darajasi holati. Ya’ni “Hayot faoliyati xavfsizligi” yo‘nalishi hamda fanining amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarin o‘tkazish uchun kerakli jihozlar va vositalar yetishmasligi yoki ularning virtual mashg‘ulot bajarish jihozlari ta’lim muassasalarida to‘liq ta’minlanishi bo‘yicha muammolar borligi. Masalan bu muammoni Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti misolida ko‘rishimiz mumkin.

Toshkent temir yo‘l muhandislari institutida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o‘qitishdan maqsad, talabalarda kasbiy majburiyatlarini bajarish bilan birga, bitiruvchi bakalavr va magistr (rahbar yoki mutaxassis vazifalariga) ga temir yo‘l transporti korxonalari, harakatdagi tarkib va transport qurilishidagi ishchilarni shikastlanmasdan mehnat qilishi va ularni xavfsizligini yetarli darajada ta’minlash bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Buning uchun zamonaviy, maxsus jihozlangan xona, auditoriya va o‘quv sinflari talab etiladi. Ya’ni zamonaviy asbob – uskunalar bilan jihozlangan “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani laboratoriya xonasini tashkil etish kerak bo‘ladi. Unda zamonaviy multimedia vositalari, radiatsiya va kimyoviy zararlanishni o‘lchash uchun nazorat – o‘lchash asboblari, zamonaviy shaxsiy himoya vositalari (gazniqoblar, respiratorlar, avariya – qutqaruv otryadlarining maxsus qutqaruv kiyimlari va h.k.), maketlar, elektron plakatlar, videomateriallar, termomanometrlar, lyusmetr, shovqin o‘lchagich (shumomer), vibrometr, psixrometr, chang o‘lchagich, yurak va o‘pkani reanimatsiya qiluvchi trenajyor, elektr tarmog‘ini yerga va nolga ulash stend – trenajyori bo‘lishi talab etiladi [13].

Sakkizinchidan, keyingi uch yillikda O‘zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga oid qator Qonun va qarorlarida jamiyatga yordam ko‘rsatish, atrof – muhitni muhofaza qilish, jamiyatda fuqarolik nuqtai nazarini, o‘zini o‘zi tashkil etishni, ijtimoiy mas’uliyat, birdamlik, o‘zaro yordam berish masalalarini belgilashda aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu

mexanizmlarning fan dasturlarida asosiy negizini ochib berilishiga erishish yetarlicha tashkil etilmagan. Natijada tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga to'liq javob bermaydi.

“Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini, zamonaviy dolzarb muammolarni, atrof muhit bilan insonning barcha sohalarni o'rganib, hisobga olgan holda, o'quv jarayonini tashkil etish zarurligini belgilaydi. Respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida ushbu fanning ishchi dasturlarida atrof – muhitning salbiy omillarining xususiyatlarini o'rganish, ularning identifikatsiyasi va salbiy ta'sir darajasini baholash, inson hayoti va sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishni qamrab olish bilangina soha yo'nalishlari bo'yicha xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mumkin.

Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik asoslarini aniqlash, nazariy jihatdan isbotlash hamda ularning hayot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish, darsliklar yaratish kabi mas'uliyat yuklaydi, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

XULOSA

Xavfsizlik madaniyatini o'rganish, xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va butun xalqning xavfsizligini, ongini, bilimni va malakasini oshirish orqali jamiyatning xavfsizligi va ogohligini oshirishimiz kerak. Xavfsizlik va ogohlikni oshirish, oxir – oqibatda yaxshiroq xatti – harakatlarga olib keladi. Bunday xatti – harakatlarga faqatgina o'zimizni emas, balki butun jamiyatning umumiy xatti – harakati bo'lishi lozim. Yuqoridagilarni inobatga olib, talabalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimining ahamiyatini anglagan holda, hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini ta'minlash muhim pedagogik muammo sifatida tadqiq etildi. Bunda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani xavfsizlik madaniyatini takomillashtirishning asosiy bo'g'ini sifatida belgilab olindi. Talabalarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni bartaraf etish qoidalarini o'rgatish, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, ularga nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat vazifalarni maqsad qilib qo'ygan “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar haqida fikr yuritildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455-sonli qarori. Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabr kuni 754-sonli «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.
3. Gidrotexnik inshootlaridagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qidiruv- qutqaruv ishlarini amalga oshirish chora tadbirlari “FORMATION OF PSYCHOLOGY

AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES" ITALIA (144-149 b)
WWW.INTERONCONF.ORG Nuraliyev.A.O Axmadjonov.M.A

4. Zaharli moddalardan aholini muhofazalashni iqtisodiy samaradorligini oshirish chora
tadbirlari MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE
RESEARCH CONFERENCE GERMANY (282-286 b) WWW.INTERONCONF.ORG
Nuraliyev.A.O Berdiyev.D.F

5. Sanoat korxonalarida uzluksiz mehnat tizimini tashkillashtirish, boshqaruv tizimini
tashkil etish MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE
RESEARCH CONFERENCE GERMANY (275-281 b) WWW.INTERONCONF.ORG
Nuraliyev.A.O Qodirov.D.B

6. Mamlakatimizda seysmik faol hududlarida bino va inshootlar barqarorligini taminlash
istiqbollari Международный современный научно-практический журнал № 11 (100), часть
1, (234-242b) Nuraliyev.A.O Mamasidiqov.A.M

7. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda ko'riladigan zarur choralar haqidagi bilimlarini
oshirish bo'yicha ta'lim resurslarini yaratish uchun bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish
<http://pedagoglar.org/index.php/02/issue/view/43> Nuraliyev A Turg'unboyev D

8. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy
tamoyillari <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/5177> Nuraliyev A Tursunboyev A

9. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o'g'li. (2022). ZAMONAVIY YONG'IN
O'CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARINING AHAMIYATI VA MUAMMOLARI. *Евразийский журнал
академических исследований*, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>

10. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li. (2022). SANOAT
KORXONA3.LARIDAN CHIQAYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA
YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferentsiya
materiallari , 1 (3), 144

149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi

11. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li, Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li,
MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH
“Hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi” jild. 3-son 29 (2023-yil)
<https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/9270>